

NAREZLI O'QOTAR QUROLNING DIAGNOSTIK TADQIQOTLARI

O'zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligi Akademiyasi o'qituvchisi

Gulyamov Sunnatali Sunnatali o'g'li

3-bosqich 328-guruh kursanti

Mansurova Marjona Muzaffar qizi

Annatatsiya: Ushbu maqolada qurol tushunchasi, o'qning zarar yetkazish mexanizmi mavjudligi, o'qotar qurollarining mo'ljallangan maqsadi, patronlarning ballistik xususiyatlari, gilza, turli xil otuvchi moslama va qurilmalar, ishlatiladigan o'q dorilar, kinetic energiya, gilzaning snaryad mahkamlanadigan og'zi haqida so'z boradi.

Аннотация: в данной статье рассматривается понятие оружия, наличие механизма повреждения пули, предназначение огнестрельного оружия, баллистические характеристики патронов, гильзы, различные метательные устройства и устройства, используемые боеприпасы, кинетическая энергия, дульная часть гильзы, к которой крепится снаряд.

Annotation: this article will talk about the concept of a weapon, the presence of a projectile damage mechanism, the intended purpose of firearms, the ballistic characteristics of cartridges, gilza, various shooting devices and devices, the ammunition used, kinetic energy, the muzzle of the cartridge in which the projectile is fixed.

Kalit so'zlar: Qurol, qurollik, stvol, kalibr, qayta o'qlash, konstruktiv belgi, qurol turi, jangovar, ov, sport va kriminal qurollar, harbiy, xizmat va fuqarolar qurollari, nostandart qurollar, atipik qurollar.

Ключевые слова: оружие, огнестрельное оружие, ствол, Калибр, перезарядка, конструктивное обозначение, тип оружия, боевое, охотничье, спортивное и Криминальное оружие, военное, служебное и гражданское оружие, нестандартное оружие, нетипичное оружие.

Keywords: weapons, weapons, stvol, caliber, re-reading, constructive character, type of weapon, combat, hunting, sports and criminal weapons, military, service and civilian weapons, non-standard weapons, atypical weapons.

Qurol – bu fizikaviy, kimyoviy va biologik ta'sirni ta'minlovchi, hujum qilish va faol himoya qilish vositasi, ya'ni, dushmanning jonli kuchlari va jangovar texnikasini yo'qotish yoki safdan chiqarish vositasidir. Ishlab chiqarish va havaskorlik ovi hamda sport maqsadlari uchun mo'ljallangan ov o'qotar qurollari ishlatiladigan snaryadlariga bog'liq ravishda sochma o'qli silliq stvolli qurollarga (asosan, sochma o'qlar bilan otish uchun); o'qli narezli qurollarga (o'qlar bilan otish uchun); murakkablashtirilgan (ham narezli ham silliq) stvolli qurollarga (o'qlar bilan ham sochma o'qlar bilan ham otish uchun) bo'linadi.

Qurollik – maqsadi jihatidan shikast yetkazishga mo'ljallanganligi, obyektning tuzilishi ana shu maqsad uchun yaroqli bo'lishi. Obyektning tuzilishi uchta tugundan iborat

bo‘lishi kerak: stvol, yopuvchi va otuvchi mexanizm hamda o‘qning yetarli zarar yetkazuvchi kuchining mavjudligi.

O‘qotar qurollarning juda ko‘p va xilma –xilligi hisobiga, ular turli asoslarga – mo‘ljallangan maqsadi, tuzilish xususiyatlari, yasalish usullari, stvol kanalining tuzilishi, uzunligi, stvollarining miqdori, kalibri, o‘qlarning miqdori, o‘qlanish usuli, ishlatiladigan patronlardagi kapsyullarning joylashishi, qayta o‘qlash usuli va avtomatikasining darajasi, turlari, konstruksiyasi, rusumi va namunalariga ko‘ra tasniflanadi. Ushbu tasniflash asoslarining barchasi o‘qotar qurollarning konstruktiv belgilariga bog‘liqdir. O‘qotar qurolni tasniflashda ayrim asoslar muayyan qurolni ifodalovchi konstruktiv belgilarga tayansa, ayrimlari esa o‘qotar qurolning alohida tugunlari, ko‘pincha qurol stvoli va yopish mexanizmini ifodalovchi konstruktiv belgilarga tayanadi. O‘qotar qurollar mo‘ljallangan maqsadiga ko‘ra jangovar, ov, sport va kriminal qurollarga bo‘linadi. Jangovar o‘qotar qurollar asosan odamni jarohatlash uchun mo‘ljallangan bo‘lib, o‘z navbatida, harbiy, xizmat va fuqarolar qurollariga bo‘linadi.

Harbiy qurollar – harbiy qo‘shinlar va harbiylashgan bo‘linmalarda qo‘llash uchun qabul qilingan, harbiy harakatlar va maqsadlar uchun mo‘ljallangan qurollar.

Xizmat qurollari – xodimlarga qonuniy ravishda jamiyat, tabiat va turli shakldagi mulklarni jinoiy hamda boshqa tajovuzlardan himoya qilish va asrash kabi o‘z xizmat vazifalarini bajarishlarida qurol olib yurish va saqlash vakolati berilgan tashkilotlar, korxonalar va muassasalarga mo‘ljallangan qurollar.

O‘qotar qurollar tuzilish xususiyatlariga ko‘ra standart, nostandart va atipik qurollarga bo‘linadi. Standart qurollar – qurol tayyorlashda ishlatiladigan materiallar, qurolning o‘lchamlari va shakli, tuzilishi, alohida qismlariga ishlov berish darajasi, shuningek, markirovka va naqshlar bilan bezatilishiga ko‘ra buyurtmachi (davlat) tomonidan texnik standart talablari qo‘yilib, zavodda (sanoat usulida) yoki ustalar tomonidan tayyorlangan qurollar. Nostandart qurollar– tayyorlanishida hech qanday texnik standart talablari qo‘yilmagan qurollar. Bunday qurollar ba’zida ayrim standart qurolga o‘xshatib tayyorlanishi mumkin, lekin standart texnik talablarga javob bermaydi yoki bu talablarga buzib rioya etiladi. Atipik qurollar – tuzilishi jihatdan hech qanday qurolga umuman o‘xshamaydigan qurollar. O‘qotar qurollar yasalish usullariga ko‘ra zavod usulida (sanoatda ishlab chiqarilgan), ustalar usulida va qo‘lbola usulda tayyorlangan qurollarga bo‘linadi.

Narezli o‘qotar qurollarning diagnostik ekspertizasining ilmiy asoslari haqida fikr yuritishdan oldin, uning metodlari tushunchasi va turlarini ko‘rib chiqish lozim. Chunki, metodning asosini inson tomonidan to‘plangan bilimlar, tajribalar, malaka va ko‘nikmalar tashkil etadi, inson ular yordamida voqelikni yanada yaxshiroq bilishning usul va metodlarini, yo‘llarini izlab topadi. Kriminalistikada metod bilish usuli sifatida o‘rganiladi. Sud-ballistik ekspertizasining umumiy va umumilmiy metodlari, xuddi kriminalistika kabi boshqa barcha fanlarda ilmiy asoslangan ravishda qo‘llaniladigan, qabul qilingan bilishning metodlaridan iboratdir.

20-May, 2025-yil

Turli xil otuvchi moslama va qurilmalar, jangovar o‘q-dorilar va ularni ishlatish izlarining har taraflama va to‘liq sudga oid ballistik tadqiqotlari natijasida tergov va sud organlarini qiziqtirgan juda ko‘plab savollarga javob berilishi mumkin.

Qurol – o‘zining uchish yo‘nalishida turgan (duch kelgan) to‘siqlar (nishonlar, obyektlar)ga, ushbu yo‘nalishdagi harakat tezligi kattaligiga ko‘paytirilgan og‘irligi bilan ta'sir qiluvchi snaryadlar, ya'ni nisbatan unchalik katta bo‘lmagan qattiq jismlarni otish uchun mo‘ljallangan mexanizm. Binobarin, qurol o‘zidan otilgan snaryadga yo‘nalish berish uchun xizmat qiladigan maxsus tarkibiy qismi – to‘g‘ri shaklli otuvchi stvolining mavjudligi bilan tavsiflanadi.

Qurol – yetarlicha mustahkamlik darajasiga va xavfsizlik hamda hech qanday buzilish va ushlanishlarsiz ishlash qobiliyatiga ega bo‘lgan ko‘p marta ishlatishga mo‘ljallangan mexanizm. Shuning uchun, qurol stvol kanali va zaryad kamerasi devorlarining parametrlari, shuningdek, yopish mexanizmining o‘ziga xos xususiyatlari bilan tavsiflanadi. Qurolning, ishlatiladigan jangovar o‘q-dorilar bilan ifodalanuvchi ballistik xususiyatlari. Birorta obyekt (qurolga o‘xshash buyumlar, otuvchi moslama va mahsulotlar) yoki obyektning o‘qotar qurolga tegishlilikini aniqlashda, ushbu moslama yoki obyektning tuzilishiga xos belgilari va mustahkamlik darajasi, shuningdek, ishlatiladigan standart jangovar o‘q-dorilar (patronlar), snaryadlar va poroxlar bilan ifodalanuvchi ballistik xususiyatlarini hisobga olish lozim. Binobarin, tadqiqot jarayonida nafaqat ushbu obyekt yoki moslamaning xususiyatlari, balki, ishlatiladigan jangovar o‘q-dorilar, shuningdek, ushu jangovar o‘qdorilarni ishlatishning tekshirilayotgan jinoyat ishi bo‘yicha ma'lum bo‘lgan holatlari ham e'tiborga olinishi kerak. Patronlarning ballistik xususiyatlari, turli ilmiy asarlar, ma'lumotnomalar, sud-tibbiyoti va kriminalistik tajribalarning nashr ettirilgan natijalaridan foydalanilgan holda hisobga olinadi. Standart patronlar, snaryadni gilzadan turtib chiqarish uchungina emas, balki, otilgan snaryadga stvol kanalida va uchish jarayonida yetarlicha energiya beradigan holda tayyorlanadi. Gilzaning snaryad mahkamlanadigan og‘zi, ushbu snaryadning dastlabki (birlamchi) kiruvchi harakatini yo‘naltiradi: oddiy (unitar) patronning gilzasi quroldan alohida hisoblangan zaryad kamerasi vazifasini bajaribgina qolmay, balki, qurol stvolining boshlang‘ich qismi vazifasini ham o‘taydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xasanov Sh.X., Turabbaev X.A., Xusanov A.D. Ballistik ekspertiza: Darslik. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2013. – 444 b

2. Sh.X.Xasanov, S.S.Nuriddinov, A.D.Xusanov, I.E.Eshmetov Kriminalistik ekspertizalarni o‘tkazishdagi xatolar: O‘quv-metodik qo‘llanma – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015. – 68 b.